# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING

# QARORI

2023 - yil 27 - iyul 203-9-0-Q/23 Sirdaryo viloyati hokimligi

**Sardoba tumani “Bo‘ston” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan sendvich panelli usti yopiq valeybol, basketbol, qo‘l to‘pi sport o‘yinlariga mo‘ljallangan sport zalining qurilishiga jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga yer uchastkasi ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5072-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 543-son qarori, Xalq deputatlari Sardoba tumani Kengashining 2023-yil 26-apreldagi VI-62-63-9-127-K/23-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi"ning 5, 20-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 10 va 25-moddalariga asoslanib **qaror qilaman:**

1. Sirdaryo viloyati “Yagona buyurtmachi xizmati” davlat unitar korxonasining 2023-yil 12-maydagi 01/09-829-sonli xati qanoatlantirilsin va viloyatdagi tegishli tashkilot, korxonalarning ijobiy xulosalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Sirdaryo viloyati “Yagona buyurtmachi xizmati” davlat unitar korxonasiga Sardoba tumani “Bo‘ston” MFY hududining tuman hokimligi zaxirasidagi qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlardan sendvich panelli usti yopiq valeybol, basketbol, qo‘l to‘pi sport o‘yinlariga mo‘ljallangan sport zalining qurilishiga 24 m x 42 m o‘lchamdagi A1724226015/2-raqamli 0,1008 gektar yer uchastkasi jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga

ajratilsin.

3. Sirdaryo viloyati “Yagona buyurtmachi xizmati” davlat unitar korxonasi (A.Kushanov)ga:

ajratilgan yer uchastkasida qurilishi rejalashtirilgan sendvich panelli usti yopiq valeybol, basketbol, qo‘l to‘pi sport o‘yinlariga mo‘ljallangan sport zalining qurilishi uchun belgilangan tartibda loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqib, ekspertizadan o‘tkazish hamda qurilish ishlarini o‘z muddatida amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 543-son qarorining 31-bandi talablari asosida Davlat kadastrlari palatasi hududiy boshqarmasi, Qurilish bosh boshqarmasi hamda “O‘zGASHKLITI” DUK loyiha-qidiruv tashkiloti filiali bilan birgalikda sendvich panelli usti yopiq valeybol, basketbol, qo‘l to‘pi sport o‘yinlariga mo‘ljallangan sport zalining qurilishi uchun ajratilgan yer uchastkasi chegaralarini joyida (naturada) belgilanishini ta’minlash va yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish majburiyatlari yuklatilsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyati boshqarmasi (B.Minasipov) yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin hamda viloyat yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari R.Boboyev va viloyat hokimining o‘rinbosari V.Ibadullayev zimmasiga yuklatilsin.

**Sirdaryo viloyati hokimi** **A.Maxmudaliyev**